

## ZAMONAMIZ QAHRAMONI

### Yozuvchidan

Har bir kitobda so'zboshi uning ham avvali, ham oxiridir; u yo asarning maqsadini tushuntirib berish yoki tanqiddan o'zini oqlash va tanqidga javob vazifasini o'taydi. Biroq, odatda, axloqiy maqsad yoki jurnal tanqidlari bilan o'quvchilarning ishlari bo'lmaydi, shuning uchun ular so'zboshini o'qimaydilar. Afsuski, ayniqsa, bizda shunday. Bizning kitobxonlarimiz hali shu qadar yosh va soddadilki, agar masalaning oxirida qissadan hissa degan xulosa bo'lmasa, uning ma'nosiga tushunib yetmaydilar. Ular hazilni bilmaydilar, kinoyani payqamaydilar; to'g'risi, ular yomon tarbiya ko'rganlar. Ular nomusli jamiyat va odobli kitobda oshkora haqoratga yo'l qo'yilmasligi kerakligi, zamonimiz ma'rifati undan ham o'tkirroq, deyarli ko'zga ko'rinmasa ham, ammo xushomadgo'ylik niqobi ostida undan ko'ra qattiqroq va omonsizroq zarba beradigan qurol kashf etganini hali bilmaydilar. Bizning kishilarimiz bir-biriga dushman bo'lgan ikki davlatga qarashli diplomatning suhbatini eshitganda, bular qalin do'st bo'lganlari uchun hukumatlarini aldashmoqda, deb ishonadigan provinsialga o'xshaydilar.

## BIRINCHI BO'LIM

### 1

#### BELA

Men bekat aravasida Tiflisdan jo'nab ketmoqda edim. Aravamning bor-yo'q yuki kichkinagina jomadondan iborat bo'lib, uning ham yarmi Gruziya xotiralari bilan to'la. Sizning baxtingizga, xotiralarning ko'p qismi yo'qolib ketgan, jomadonim bilan boshqa narsalarim esa, mening toleyimga, omon qolgan edi.

Koyshaur vodiysiga kirib borganimda, quyosh qorli tog'lar orqasiga yashirina boshlagan edi. Osetin – aravakash qorong'i tushguncha Koyshaur tog'ining tepasiga otib olish niyatida, otlarni hadeb qistar va ovozi boricha baqirib ashula aytar edi. Bu vodiy g'oyat ajoyib joy! Hamma yog'i – odam oyog'i tegmagan baland-baland tog'lar, chirmashib o'suvchi o't-o'lanlar va yam-yashil baxmaldek to'p-to'p chinor daraxtlari qoplagan qizg'ish azamat qoyalari; suv o'pirib ketgan sarg'ish jarlar; tepada, cho'qqilarda esa zar hoshiyaday tovlanuvchi qorlar, pastlikdan esa Aragva qop-qorong'i dara tagidan hayqirib chiquvchi nomsiz boshqa bir soy bilan quchoqlashib, xuddi ilon tangasiday yaltirab oqadi.

Koysaur tog'ining etagiga yetgach, duxan<sup>1</sup> yonida to'xtadik. Bu yerda yigirmatacha gruzin va tog'liklar chuvillashib turishar edi; sal nari-da tuya karvoni ham tunash uchun qo'ngan. Aravamni shu la'nati tog' ustiga olib chiqish uchun ho'kiz kira qilishim kerak edi, chunki kuz fasli kirib, yerlar yaxlab, sirg'anchiq bo'lib qolgan, tog'ning balandligi esa ikki chaqirimcha kelar edi.

Noiloj oltita ho'kiz bilan bir necha osetin yolladim. Osetinlardan biri jomadonimni yelkasi-ga ko'tarib oldi, qolganlari esa qiy-chuv bilangi-na ho'kizlarga madad berib borishdi.

Mening aravam ketidan limmo-lim qilib yuk ortilgan boshqa bir aravani to'rtta ho'kiz bema-lol tortib kelardi. Bu meni ajablantirdi. U arava ketidan kumush qoplangan kichkinagina ka-bardincha tamakisini chekib egasi kelar edi. Uning egnida – epoletsiz ofitsercha syurtuk<sup>2</sup>, boshi-da esa paxmoq qalpog'i bor edi. Yoshi elliklar-da; yuzining qorachaligi Kavkaz quyoshi bilan ko'pdan beri tanish ekanligidan darak berardi. Bevaqt oqargan mo'ylovlari esa uning shaxdam qadam tashlashiga va bardamligiga mos tush-mas edi. Men uning yoniga kelib, boshimni egib salom berdim; u mening salomimga indamay alik oldi-da, og'zidan burqitib tutun chiqardi.

– Aftidan, hamrohga o'xshaymiz-a?

U yana indamay bosh egdi.

– Stavropolga ketayotibsizmi, deyman?

---

<sup>1</sup> Duxan – do'kon so'zining Kavkazda aytilishi. Odatda, duxan qovoqxonaga vazifasini ham o'taydi.

<sup>2</sup> Syurtuk – etagi tizzasigacha tushadigan erkaklar kiyimi.

– Ha, ha... poshsholik narsalari bilan.

– Menga qarang, baraka topkur, nima uchun sizning ogʻir yukli aravangizni toʻrtta hoʻkiz bemaol tortadi-yu, mening boʻsh aravamni, mana bu osetinlar madad bersa ham, olti hoʻkiz zoʻrgʻa sudraydi?

Hamrohim mugʻombirona jilmaydi-da, menga maʼnodor nazar tashladi.

– Kavkazga yaqinda kelganmisiz, deyman?

– Bir yilcha boʻldi, – deb javob berdim men.

U yana jilmayib qoʻydi.

– Nima edi?

– Shunday, oʻzim! Bu osiyoliklar oʻlarday ayyor boʻladi! Siz ular baqirib hoʻkizlariga madad berayotir, deb oʻylarsiz? Ularning nima deb baqirishini kim biladi, deysiz! Hoʻkizlar ularning tiliga tushunadi; yigirmata hoʻkiz qoʻshing, baribir, agar ular oʻz tilida bir nima deb baqirdimi, boʻldi, hoʻkizlar joyidan qimirlamay turaveradi... Bari uchiga chiqqan ayyor! Nima ham qilaolasiz?.. Bular oʻtkinchilarning pulini qoqib olish payida... Bu muttahamlarni juda yomon oʻrgatib qoʻyishgan! Hali koʻrarsiz, sizdan yana araq puli ham olishadi. Men bularni yaxshi bilaman, meni aldab boʻpti!

– Bu yerda koʻpdan beri xizmat qilasizmi?

– Ha, Aleksey Petrovich<sup>1</sup> zamonida ham xizmat qilardim, – deb javob berdi hamrohimgʻurur bilan. – Aleksey Petrovich Liniyaga<sup>2</sup> kel-

<sup>1</sup> Aleksey Petrovich Yermolov – Kavkazni zabt etishda rus qoʻshinlariga qoʻmondonlik qilgan rus generali.

<sup>2</sup> Liniya – bu yerda qator qurilgan harbiy istehkomlar maʼnosida; chor qoʻshinlari shu istehkomlardan Kavkazga hujum boshlaganlar.



ganda, men kichik zobit edim, – deya ilova qildi, – uning qo‘li ostida tog‘liklarga qarshi janglarda qatnashib, martabam ikki bor oshdi.

– Hozir-chi?..

– Hozir uchinchi Liniya batalonidaman. O‘zlaridan so‘rasak?..

Men ham aytdim.

Shu bilan suhbatimiz tugadi, ikkovimiz indamay yonma-yon ketaverdik. Tog‘ tepasiga chiqsak, qor bor ekan. Quyosh botib ketdi, kun botmay turib, tun bostirib keldi, odatda, janubda shunday bo‘ladi; ammo qor oppoq oqarib turgani uchun, garchi uncha tik bo‘lmasa ham, yuqoriga ko‘tarilib boruvchi yo‘lni adashmay topib borardik. Jomadonimni aravaga solib, ho‘kizlarni chiqarish va aravaga ot qo‘shishni buyurdim-da, pastga, yastanib yotgan vodiya so‘nggi marta ko‘z tashladim, biroq tog‘lar orasidan burqsib chiquvchi qalin tuman vodiyni tamomila qamrab olgan, u yerdan biron tovush ham qulog‘imizga yetib kelmas edi. Osetinlar shovqin-suron bilan meni o‘rtaga olib, araq puli talab qila boshladilar; ammo kapitan ularga bir o‘shqirib bergan ediki, bir zumda tumtaraqay bo‘lib ketishdi.

– Juda g‘alati xalq-da, bular! – dedi kapitan, – rus tilida non deyishni bilmaydilar-u, «Ofitser, araq puli ber!» deyishni bilib olganlariga hayronman! Menga qolsa, bulardan tatarlar ming chandon yaxshi: ular hech bo‘lmaganda, araqdan hazar qilishadi-ku...

Bekatga yana bir chaqirimcha qolgan edi. Tevarak-atrof jimjit, shu qadar jimjit ediki, hat-

to chivin g'ing'illab uchsa, uning qaysi tomonga uchganini bilish mumkin edi. Chap yonimizda chuqur dara qorayib ko'rinardi; uning orqasidan va qarshimizdan botib ketgan quyoshning so'nggi shafaqlari arang ko'rinib turgan och rangli ufq etagida qat-qat qor bosgan ko'm-ko'k tog' cho'qqilari ko'zga tashlanar edi; qoramtir osmonda yulduzlar miltillay boshladi, bu yulduzlarning bizning shimol taraflardagiga nisbatan ancha yuksak ko'rinishi odamga g'alati tuyilardi. Yo'lning ikki tomonida qop-qora xarsang toshlar qaqqayib turardi; u yer bu yerda qor tagidan butalar chiqib turardi-yu, ammo qotib qovjirab ketgan barglarning birortasi ham qimir etmasdi, butun tabiat chuqur uyquga ketgan bunday bir vaziyatda bekat aravasini tortib boruvchi uchta horg'in otning pishqirishi va rus qo'ng'iroqchasining past-baland jaranglashini eshitib borish nihoyatda nash'ali edi.

– Ertaga havo yaxshi bo'ladi! – dedim men.

Kapitan mening bu gapimga indamadi-da, ko'rsatkich barmog'i bilan naq ro'paramizda qad ko'tarib turgan baland toqqa ishora qildi.

– U nima? – deb so'radim men.

– Gud-Tog'.

– Gud-Tog' bo'lsa nima qipti?

– Bug'lanib turishini qarang.

Chindanam, Gud-Tog'ning tepasi bug'lanib turar edi; tog' tevaragida yengil bulutlar suzib yurardi, cho'qqisida yaslanib yotgan qop-qora bulut esa hatto qorong'i osmonda ham yaqqol ko'rinib turardi.

Pochta bekati<sup>1</sup> va uning yon-veridagi saklyalarning<sup>2</sup> tomlari ko'zga tashlandi, qarshimizdan jozibali chiroqlar miltillab ko'rindi; nam va izg'irin shamol turib, dara guvillab, mayda yomg'ir yog'aboshladi. Burkamni endi ustimga tashlay deb turgan edimki, birdan qor yog'ib qoldi. Ehtirom bilan kapitanga qaradim...

– Shu yerda tunab qolishga to'g'ri keladi, – dedi u o'ksinib, – bunday bo'ronda dovon oshish qiyin. Hay, Krestovayaga ko'chki tushganmi? – deb so'radi aravakashdan.

– Tushgani yo'q, taqsir, – deb javob berdi osetin aravakash, – ammo bir talayi tushay deb turipti.

Bekatda yo'lovchilar qo'nadigan joy bo'lmagani uchun bizni tutun bosib ketgan bir saklyaga joylashtirdilar. Men hamrohimni choyga taklif qildim. Kavkazni kezib yurganimda birdan-bir ovunchog'im bo'lgan cho'yan qumg'onim o'zim bilan birga edi.

Saklyaning bir tomoni tog' bag'riga yopishgan bo'lib, eshigiga uchta ho'l, tirg'onchiq zinapoya bilan chiqilardi. Paypaslab ichkari kirdim-da, bexosdan sigirga qoqilib ketdim (bu tomonlarda malayxona ham, og'ilxona ham bir bo'larkan). Qayoqqa oyoq bosishni bilmay qoldim. Bir yonimda qo'ylar ma'raydi, bir tomonimda it irillaydi. Yaxshiyam bir chekkadan chiroq miltillab ko'rindi-yu, eshikka o'xshash bir tuynukni zo'r-bazo'r topdim. Shunda juda

---

<sup>1</sup> Pochta bekati – temir yo'l qurilmasdan burun Rossiya-da kiraga ot-arava beruvchi stansiya: bunday bekatlar deyarli har yerda bo'lar edi.

<sup>2</sup> Saklya – kavkazliklar uyi.

ajoyib bir manzara ochildi: is bosib ketgan shiftini ikki ustun ko'tarib turgan kattagina uy odamga liq to'la edi. O'rtada charsillab gulxan yonardi, mo'ridan shamol qaytarib urib turgan quyuq tutun hamma yoqni shunday o'rab olgandiki, anchagacha hech narsani ko'rolmay turdim; gulxan oldida ikki kampir, bir talay bola-chaqa va ust-boshi juldur-juldur, oriq bir gruzin o'tirardi. Noiloj biz ham gulxan yoniga tiqilishdik, tamaki chekishdik, birpasdan keyin qumg'onimiz ham pishillay boshladi.

Qimir etmay bizga anqayib o'tirgan uy egalarini ko'rsatib, kapitanga:

– Bechoralar! – dedim.

– Juda noshud xalq, – deb javob berdi ham-rohim. – Xoh ishonning, xoh ishonmang, qo'llaridan hech narsa kelmaydi, ilm-ma'rifat o'rganishga sira uquvlari yo'q! Kabardin yoki chechenlar, garchi o'g'ri, yalangoyoq bo'lsalar ham, juda jasoratli bo'ladilar, bular bo'lsa hatto yarog'-aslahaning nimaligini ham bilmaydi, birortasida tuzukroq xanjar ham ko'rmaysiz. Osetin deganlaricha bor-da!

– Checheniyada ko'p turganmisiz?

– Ha, u yerdagi qal'ada o'n yilcha turganman. Kamenniy Brod degan joy yonida, bilarsiz?

– Eshitganman.

– E, otaxon, bu kallakesarlar rosa bezorijon qilishardi-da, Xudoga shukr, hozir ancha tinchib qolishdi, ilgari valdan<sup>1</sup> yuz qadam nariga siljiy olmas edik: albatta, biron yerda birorta paxmoq kalla poylab yotgan bo'lardi; sal g'aflat-

<sup>1</sup> Val – qal'a tevaragidagi tuproqqo'rg'on, ko'tarma.



da qoldingmi, yo bo'yingga sirtmoq tushardi, yo orqangdan o'q yerding. Juda azamat xalq!..

– Bundan chiqdi, ko'p narsani ko'rgan ekan-siz-da! – dedim men, biron qiziq voqea eshitish ilinjida.

– Nega ko'rmay! Ko'rganman... – shunday dedi-da, chap mo'ylovini burab, boshini quyi solib, xayolga cho'mdi.

Men undan biron voqea eshitishni istardim, bu istak hamma sayohatchi va xotirana-vis kishilarga xos bir odat. Bu orada choy ham qaynadi; jomadonimdan ikkita safariy stakan-ni olib choy quydim-da, bittasini uning oldiga qo'ydim. Hamrohim choydan bir ho'plab, o'zi-cha: «Ha, ko'p narsa ko'rganman!» – deb qo'ydi. Uning bu xitobi menda zo'r umid tug'dirdi. Men bilaman, ko'pdan beri Kavkazda turuv-chilar suhbatni, hikoya aytib berishni yaxshi ko'rishadi, bunga ular kamdan-kam muyassar bo'ladilar: shunday odamlar bo'ladiki, biron pastqam joyda rotasi bilan besh-olti yil tursa ham, salom deydigan odam topilmaydi (chun-ki feldfebel unga faqat salomat bo'ling, deydi). Ammo ularning dilida aytadigan gaplari ko'p: tevarak-atrofdagi qiziq, yovvoyi odamlar to'lib yo-tibdi; har kun xavf-xatar kutadi; har xil qiziq voqealar bo'lib turadi, mana shunday payt-larda bizda xotirana-vislarning kam bo'lganiga achinasan.

– Choyingizga jindak rom quyib beraymi? – dedim suhbatdoshimga, – Tiflisdan olgan oq romim bor; kun sovuqroq.

– Yo'q, rahmat, ichmayman.

– Nega?

– Shunday. Ichmayman deb qasam ichganman. Zobitlik chogʻimda bir marta ulfatlar bilan ichishib qolgan edim, birdan kechasi chaqiriq boʻlib qoldi; hammamiz shirakayf edik, shu holimizcha safga tizildik. Aleksey Petrovich buni bilib qolib, shunaqangi adabimizni berdiki, asti qoʻyaverasiz, juda jahli chiqib ketdi! Sudga berishiga sal qoldi. Sirasini aytganda, yil boʻyi birorta odamni uchratmaysan, buning ustiga araʼq ichib qolsang bormi, tamom boʻldim deyaver!


Bu gapni eshitgach, umidim uzildi.

– Masalan, cherkaslarni oling, – deb soʻzida davom etdi u, – toʻydami yo azadami boʻzani oʻlarday ichib olishadi-da, keyin bir-birlarini chavaqlay ketishadi. Bir marta zoʻrgʻa qochib qutulganman, boʻlmasa, itoatli bir knyaznikida<sup>1</sup> mehmonda edim.

– Nima voqea boʻlgan edi oʻzi?

– Men sizga aytsam, – hamsuhbatim tamakisini yangiladi-da, tutatib, hikoyasini boshladi, – u kezlarda men Terekning narigi sohilidagi qalʼada rota bilan turardim, bunga yaqinda besh yil boʻladi. Kuz kunlaridan birida qalʼaga oziq ortgan transport keldi. U transportda yigirma beshlarga kirgan bir yosh ofitser ham bor edi. Ofitser rasmiy formada huzurimga kirdi-da, qalʼada qolish toʻgʻrisida buyruq olganini bildirdi. U shu qadar xipcha, nozik yuzlari oppoq, mundiri shu qadar yangi ediki, uning Kavkazga yaqinda kelganini darhol fahmladim. «Bu yerga

<sup>1</sup> Itoatli knyaz – Rossiya hokimligini tanigan, unga boʻysungan knyaz.



Rossiyadan yuborilgandirsiz?» – deb so‘ragan edim, u, «Shunday, janobi kapitan», deb javob berdi. Men uning qo‘lidan ushlab: «Juda xursandman, juda xursandman. Bu yerda biroz zerikib ham qolarsiz, lekin xafa bo‘lmang, inoq bo‘lib yashaymiz. Meni to‘g‘ridan-to‘g‘ri Maksim Maksimich deyavering, innaykeyin, rasmiy kiyimda kelishning nima hojati bor? Mening oldimga kelganingizda faqat furajka kiyib kel-sangiz, bas», dedim. Unga qal‘adan joy berdik, joylashib oldi.

– Oti nima edi? – deb so‘radim, Maksim Maksimichdan.

– Oti... Grigoriy Aleksandrovich Pechorin edi. Juda yaxshi yigit edi, men sizga aytsam; ammo tabiati biroz g‘alatiroq edi. Masalan, yomg‘ir demay, sovuq demay ertadan kechgacha ovda yurardi; hamma sovqotib, o‘larday charchasa, unga hech narsa qilmasdi. Ammo ba‘zida uyiga kirib olardi-da, sal shamol esdi deguncha shamollab qoldim derdi; darcha taqillab ketsa, bir seskanib, rangi oppoq oqarib ketardi; ammo to‘ng‘iz bilan yakkama-yakka olishganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman; ba‘zi vaqtlar soatlab indamas edi, ammo ba‘zan birdan gapga kirib ketdimi, bas, kulaverib ichaklaring uzilib ketardi... Shunday, juda g‘alati odam edi, innaykeyin, o‘zi ham juda badavlat bo‘lsa kerak: qimmatbaho narsalarining ko‘pligini aytmaytizmi!..

– Siz bilan ko‘p turdimi? – deb so‘radim.

– Bir yilcha turdi. Ammo, o‘sha yil sira esimdan chiqmaydi; juda ko‘p tashvish orttirdi boshimga, yigiti tushkur! Qiziq, dunyoda shun-

day odamlar borki, ularning boshlariga turli-tuman ajoyib hangomalar tushajagi peshonalariga yozilgan bo'ladi.

– Ajoyib hangomalar? – deb xitob qildim, unga choy quyar ekanman qiziqsinib.

– Men sizga aytib beray. Qal'adan olti chaqirimcha narida itoatli bir knyaz yashardi. Uning o'n besh yashar o'g'li bo'lar edi, shu bola bizning qal'aga kelib-ketib turadigan bo'lib qolgan edi; kunda yo uni deb, yo buni deb kelardi. Grigoriy Aleksandrovich ikkimiz uni juda erkalatib qo'ygan edik-da. O'zi shunday abjir va kallakesar ediki, har narsani ham qoyil qilar edi: otni choptirib ketaturib yerdagi shapkani ilib ketardi, yo bo'lmasa otda turib miltiq ham ota olardi. Uning bitta yomon odati bor edi; pulga juda o'ch edi. Bir kuni Grigoriy Aleksandrovich hazillashib, otangning qo'rasidan eng yaxshi serkani o'g'irlab kelsang, bir chervon beraman deb qoldi; buni qarangki, ertasi kuni kechasi serkaning shoxidan sudrab keldi. Ba'zan biz uni gij-gijlatib qolardik, shunda ko'zlariga qon to'lib, qo'li darhol xanjarga yugurardi. «Hoy, Azamat, bir kunmas-bir kun boshingni yeysan, ishing chatoq bo'ladi!» – derdim men.

Bir kuni kekxa knyazning o'zi kelib, bizni to'yga aytib ketdi: katta qizini uzatayotgan ekan, biz u bilan inoq edik, garchi tatar bo'lsa ham yo'q deb bo'lmas edi. Bordik. Ovulda bizni bir talay it hurib qarshi oldi. Xotin-xalajlar bizni ko'rib yuzlarini yashirishardi; yuzlarini ko'rganlarimizni esa uncha chiroyli deb bo'lmas edi. «Cherkas ayollari juda chiroyli bo'lsa kerak

deb o'ylardim», – dedi Grigoriy Aleksandrovich. «Oshiqmang!» – dedim men kulib. O'zimning o'ylab qo'yganim bor edi-da.

Biz borsak, knyazning uyi odamga liq to'la ekan. Osiyoliklarda nikoh to'ygga butun ko'chako'yni chaqirish odati bor. Bizni izzat-ikrom bilan kutib, mehmonxonaga olib kirishdi. Ammo men, har ehtimolga qarshi, otlarimizni qayerga bog'lab qo'yganlarini ko'z ostiga olib qo'yishni unutmadi.

– Ularda to'y marosimi qanaqa bo'larkan? – deb so'radim kapitandan.

– Odatdagicha bo'ladi. Oldin mulla Qur'ondan bir nimalar o'qiydi, keyin kelin bilan kuyovga, ularning hamma qarindosh-urug'lariga to'yona beriladi; ovqat yeyishadi, bo'za ichishadi; keyin chavandozlik boshlanadi, shunda, albatta, oqsoq, qirchang'i ot mingan juldur kiyimli bir kishi masxarabozlik qilib hammani kuldiradi; qorong'i tushgandan keyin mehmonxonada, bizningcha aytganda, bazm boshlanadi. Bir bechora mo'ysafid uch torli cholg'uni... xah, oti qursin, esimdan ham chiqdi. Bizning balalaykaga o'xshagan bir cholg'uni ting'illatib o'tiradi. Qizlar bir tomon, yigitlar bir tomon bo'lib, chapak chalib lapar aytishadi. Oradan bir qiz bilan bir yigit chiqib, og'izlariga kelgan narsani lapar qilib aytishadi, qolgani ularga jo'r bo'ladi. Pechorin ikkimiz uyning to'rida o'tirgan edik, bir mahal uy egasining o'n olti yashar kichik qizi uning oldiga kelib lapar aytib qoldi... Nima desam ekan... xushomad qilib qoldi-da.

– Nima deb lapar aytdi, esingizdami?

– «Yigitlarimiz navqiron, chakmonlariga kumush qadalgan, ammo yosh rus ofitseri esa ulardan ham navqiron, galunlari tilladan. Yigitlarimiz orasida go‘yo sarv; biroq u bizning bog‘imizda o‘solmaydi ham, gullamaydi ham», deb aytdi, shekilli. Pechorin o‘rnidan turib, kaf-tini peshona va ko‘ksiga qo‘yib ta‘zim qildi-da, gapimni bunga tushuntirib bering, deb mendan iltimos qildi; men ularning tilini juda yaxshi bilaman, Pechorinning gapini tarjima qilib berdim. Qiz yonimizdan ketgach, Grigoriy Aleksandrovichning qulog‘iga: «Xo‘sh, qalay ekan?» deb shivirladim. «Juda go‘zal ekan! – dedi u: – Oti nima?» Oti Bela ekanligini aytdim.

Qiz chindan go‘zal edi: baland bo‘yli, xipchadan kelgan, ko‘zlari tog‘ kiyigining ko‘zlariday qop-qora, xuddi yurak-bag‘ringizga qarab turganday. Pechorin xayolga cho‘mib, undan ko‘zini uzolmay termilib o‘tirardi, qiz ham unga tez-tez zimdan ko‘z tashlab qo‘yardi. Ammo qizga Pechorindan boshqa mahliyo bo‘lgan yana bir kishi bor edi: uyning bir burchagida o‘tday chaqnab turgan bir juft ko‘z qizga tikilib turardi. Sinchiklab qaragam, u Kazbich degan eski tanishim ekan. Uni itoatli deb ham, itoatsiz deb ham bo‘lmas edi. Garchi hech qanday yomonlik qilmasa ham, undan shubhamiz bor edi. Ba‘zan qal‘aga qo‘y haydab kelib, savdolashib o‘tirmasdan arzonga sotib ketardi, ammo o‘ldirib yuborsang ham aytgan narxidan arzonga sotmasdi. Uni odamlar abrek<sup>1</sup> bilan birga Kuban dar-yosining narigi tomoniga o‘tib qaroqchilik qila-

<sup>1</sup> Abrek<sup>1</sup> – dovyurakligi bilan nom chiqargan tog‘liklar.

di, deyishardi; rostini aytganda, haqiqatan ham basharasi qaroqchiga o'xshardi: o'zi pak-pakana, qotmadan kelgan, keng yag'rinli yigit edi... Epchilligini aytmay sizmi, naq shaytonning o'zi deysiz! Peshmati hamisha yirtiq-yamoq bo'lsa bo'lardiki, ammo quroli kumushdan bo'lardi. Tagidagi otining dovrug'i butun Qabardaga ketgandi, haqiqatan ham uning otiday ot hech qayerda topilmasdi. Unga hamma chavandozlarning havasi kelib yurardi, ko'p odamlar o'g'irlab ketishga urinib ko'rishdi-yu, ammo uddasidan chiqisholmadi. Hozir ham ko'z oldimdan ketmaydi: o'zi qop-qora edi, oyoqlari ingichka, ko'zlari Belaning ko'zlaridan qolishmasdi; baquvvatligini aytmay sizmi! Ellik chaqirim to'xtamay chopish cho't emasdi, egasiga shunday o'rgangan ediki, xuddi itday ergashib yurardi, hatto uning ovuzini ham tanirdi! Kazbich uni hech bog'lamasdi ham. Egasiga munosib ot edi-da!..

Bu kecha Kazbich odatdagidan ko'ra xafaroq edi, peshmati ichidan sovut kiyib olganini ham payqab qoldim. «Sovut kiyib olishi bejiz bo'lmasa kerak, bir niyati borga o'xshaydi», deb qo'ydim ichimda.

Uy ichi juda dim bo'lib ketgan edi, bir shamolab kelay, deb tashqari chiqdim. Tog'larni tun qamragan, daralarni tuman bosgandi.

Otlarimizga yem berildimi, yo'qmi, shuni bilmoqchi bo'lib bostirmaga kirdim, har holda ehtiyotkorlik hech zarar qilmaydi: chunki mening otim ham juda yaxshi ot edi, ko'p kabardinlar otimga suqlanib qarar va otga nisbatan aytiladigan eng yaxshi iboralarni aytishardi.


Devor tagidan o'tayotib, birdan ikki kishining tovushini eshitib qoldim: ovozlardan birini darhol tanidim: u, mezbonimizning o'g'li sayoq Azamat edi; boshqa ovoz esa past bo'lib, ahyon-ahyonda eshitilardi. «Ular nima haqida gaplashayotgan ekan? – deb hayron bo'ldim, – tag'in mening o'tim to'g'risida bo'lmasin?» Sekin devor tagiga o'tirdim-da, boshdan-oyoq eshitish maqsadida gaplariga diqqat bilan quloq soldim. Ba'zan uydan chiqqan ashula va gurunglar meni qiziqtirgan suhbatni bosib ketardi.

– Juda ajoyib oting bor-da, – derdi Azamat, – agar uyning xo'jayini men bo'lsam-u, uch yuzta biyam bo'lsa edi, yarmini sening chopqir otingga alishardim, Kazbich!

«E, Kazbich ekan-ku!» – dedim ichimda va birdan ustidagi sovuti esimga tushdi.

– Rost, – deb javob berdi Kazbich, biroz jim turgach, – butun Kabardada bunaqa otni topolmaysan, bir marta abrekalar bilan birga ruslarning yilqilarini talash uchun Terekning narigi tomoniga o'tdik; omadimiz kelmadi. Hammamiz har yoqqa to'z'g'ib ketdik. To'rtta kazak otda ketimdan quvib qoldi; kofirlar hayqirishib menga yetay deb qolganda, birdan oldimdan qalin o'rmon chiqib qoldi. Egarga yotib oldim-da, o'zimni Xudoga topshirib, umrimda birinchi marta otinga qamchi urdim, otimni haqorat qilganim ham shu edi. Otim daraxtlar orasiga qushday sho'ng'ib kirib ketdi; daraxtlarning o'tkir tikanlari ust-boshimni dabdala qilib yubordi, qayrag'ochlarning quruq shoxlari yuzlarimni timdaladi. Otim to'nkalar ustidan





sakrab, butalarni ko'kragi bilan yorib o'tardi. Aslida, otimni o'rmon yoqasiga tashlab, o'zim o'rmon ichiga yashirinsam bo'lardi-yu, ammo otimni ko'zim qiymadi, shuning uchun avliyolar qo'llab yubordi, deyman-da. Boshim ustidan bir necha marta o'q vizillab o'tdi; kazaklarning otdan tushib ketimdan quvib kelishlari aniq eshitilardi... Birdan oldimdan chuqur zovur chiqib qolsa bo'ladimi! Chopqirim bir lahza turib qoldi-yu, keyin dadil sakradi. Keyingi oyoqlari sirg'anib ketib, oldingi oyoqlari bilan zovur chetiga osilib qoldi. Jilovni qo'yib yuborib, o'zim jarga uchib tushdim; otimni shu saqlab qoldi: u bir sakrab tepaga chiqib oldi. Kazaklar buni ko'rib turar edilar, ammo birortasi ham jarga tushib meni qidirmadi; meni o'ldi deb o'ylashgan bo'lsa kerak-da; otimning ketidan quvib ketganlarini eshitib yotardim. Yurakbag'rim qon bo'lib ketdi; jar yoqasidagi qalin o'tlar orasidan emaklab ketdim – qarasam: o'rmon tugab qolgan ekan, o'rmon ichidan bir necha otliq kazak yalanglikka chiqib kelayotipti, mening Qorako'zim ham xuddi ularning oldidan chiqib qolsa bo'ladimi; hamma kazaklar hayqirib uning ketidan quvib qolishdi; anchagacha quvib yurishdi, ayniqsa bir kazakning otimning bo'yniga sirtmoq tashlab ushlab olishiga sal qoldi; titrab ketdim-da, ko'zlarimni chirt yumib, duo o'qiy boshladim. Bir necha daqiqadan keyin ko'zimni ochib qarasam Qorako'zim dumini ko'tarib, xuddi yelday uchib yuribdi, kofirlar esa yiroq dashtda horg'in otlarini lo'killatib, ketma-ket chizilishib chopishmoq-

da. Xudo haqi, rost! Yarim kechagacha jardan chiqmay o'tirdim. Bunisiga nima deysan, Azamat: bir mahal qarasam, qorong'ida jar yoqasida bir ot kishnab, yer tepinib yuripti; Qorako'zimni tovushidan tanidim, u mening o'sha yo'ldoshim edi! O'sha-o'sha bir-birimizdan sira ajralmaymiz.

Kazbich o'z arg'umog'ining ipakday bo'yniga urib, har xil nozik ismlar bilan erkalatgani eshitildi.

– Mingta biyam bo'lganda, hammasini sening Qorako'zingga alishardim, – dedi Azamat.

– Yo'q, alishmayman, – deb javob berdi Kazbich, loqaydlik bilan.

– Menga qara, Kazbich, – derdi Azamat, unga erkalik qilib, – o'zing rahmdil odamsan, mard yigitsan, otam ruslardan qo'rqib, meni toqqa chiqarmaydi, otingni menga bersang, aytganingni qilaman, otamning eng yaxshi miltig'i yo qilichini o'g'irlab beraman, nima desang – shuni keltirib beraman, otamning qilichi asil gurda<sup>1</sup> qilich: damini qo'lingga tekizsang – botib ketaveradigan; uning sovuti oldida seniki uch pulga arzimaydi.

Kazbich indamasdi.

– Otingni, – deb davom etardi Azamat, – ootingda burunlarini kerib pishqirib o'ynoqlaganini, oyoqlari ostidan toshlar otib yurganini ko'rib, ko'nglim bir xil bo'lib ketgan edi, o'shandan beri ko'zimga hech narsa ko'rinmaydi; otamning eng borib turgan chopqir otlariga

<sup>1</sup> Gurda qilich – Sharq mamlakatlarida ishlanadigan asil po'lat qilich.

ham qaragim kelmaydi, ularni minib chiqishga ham uyalaman, yurak-bag'rim qon bo'lib ketdi; yuragim qayg'uga to'lganidan kun bo'yi toqqa chiqib hasrat chekib o'tiraman, chiroyli qadam tashlab yuruvchi, sag'risi o'q-yoyiday tekis chopqiring sira ko'z oldimdan nari ketmaydi; xuddi menga bir narsa demoqchi bo'lganday, sho'x ko'zlarini javdiratib ko'zimga qarab turganday bo'ladi. Kazbich, agar otingni menga sotmasang, o'laman! – dedi Azamat, titroq tovush bilan.

Tovushi menga xuddi yig'laganday bo'lib eshitildi: shuni ham aytish kerakki, Azamat juda o'jar bola edi, kichkinaligida ham uni hech yig'latib bo'lmasdi.

Uning ko'z yoshlariga javoban kulgi eshitildi.

– Menga qara! – dedi Azamat, shiddatli tovush bilan, – ko'rib turibsanki, men hech narsadan toymayman. Xohlasang, opamni olib qochib keltirib beray. Uning o'ynaganini ko'rsang, ashulalarini eshitsang! Zar bilan kashta tikishlarini aytmaysanmi! Turk podshosining ham bunaqangi xotini bo'lgan emas... Bo'ptimi? Ertaga kechasi dara ichidagi soy bo'yida kutib tursang, opam bilan birga narigi ovulga o'tib ketayotgan bo'laman-u, opam seniki bo'ladi, vassalom. Nahotki, Bela sening chopqiringga arzimasa?

Kazbich anchagacha indamay turdi; axiri, javob o'rniga qadimgi bir ashulani xirgoyi qila boshladi:

*Ovulimizda ko'p go'zal dildorlar,  
Qora ko'zlarida yulduzlar porlar.*

Ularni sevishlik xo'p yaxshi ishdir;  
 Yoshlik erkinligi undan ham xushdir.  
 To'rt xotinni sotib oladi tillo,  
 Chopqir tulpor ot-chi, erur bebaho:  
 Unga cho'l shamoli tenglasha bilmas,  
 U hech vaqt aldamas, xiyonat qilmas.

Azamat anchagacha Kazbichni ko'ndirishga urindi, yig'ladi-siqtadi, xushomad ham qilib ko'rdi, ont ham ichib ko'rdi, bo'lmadi; oxiri Kazbich toqatsizlanib uning so'zini kesdi:

– Nari tur, tentak! Mening otimni minishga senga yo'l bo'lsin! Uch qadam bosishi bilanoq seni bir uloqtirib tashlaydiki, kallang toshga tegib, tars yoriladi.

– Meni-ya? – g'azab bilan qichqirdi Azamat, keyin kichkina xanjarning sovutga tegib jaranglagani eshitildi. Kuchli qo'l uni bir itarib yuborgan edi, bola chetan devorga borib shunday urildiki, devor lapanglab ketdi.

«Toza tomosha bo'ladigan bo'ldi-ku!» – dedim ichimda va yugurib otxonaga kirdim-da, otlarimizni yuganlab, orqa hovliga yetaklab chiqdim. Ikki daqiqa o'tmasdan uy ichi ostin-ustin bo'lib ketdi. Voqea bunday bo'lgan ekan, Azamat peshmati yirtilgan holda uyga yugurib kiribdi-da, «Kazbich meni so'ymoqchi bo'ldi», – deb baqiribdi. O'tirganlar o'rinlaridan irg'ib turib, qo'llariga miltiq olib chiqishibdi, shundan keyin to's-to'polon boshlanib ketdi! Qiy-chuv, miltiqbozlik bo'lib ketdi; Kazbich otini minib, ko'chada, odamlar o'rtasida qilichini o'ynatib, gir-gir aylanardi.

– To‘y azaga aylanib ketmasaydi, – dedim men, Grigoriy Aleksandrovichning yengidan ushlab, – yaxshisi, vaqt g‘animatda keta qolmaymizmi?

– Shoshmang, oqibati nima bo‘larkin, – dedi u.

– Nima bo‘lardi, yomon bo‘ladi; osiyoliklar hamisha shunaqa, bo‘za ichib olishdimi, pichoqbozlik boshlanadi!

Otimizga minib, uyga qaytdik.

Men toqatsizlanib:

– Kazbich nima bo‘ldi? – deb so‘radim kapitanidan.

– Unaqa odamga jin ham urmaydi! – deb javob berdi u, choyini ichib bo‘lib. – Qochib qutulib ketdi!

– Yarador ham bo‘lmadimi? – deb so‘radim.

– Xudo biladi! Bu kallakesarlarning joni qattiq bo‘ladi! Janglarda ularning ko‘pini ko‘rganman: hamma yog‘iga nayza tegib ilma-teshik bo‘lib ketsa ham, qilichini o‘ynatgani-o‘ynatgan.

Birmuncha sukunatdan keyin kapitan yer tepinib, davom etdi:

– Umr bo‘yi bir gunohimni kechira olmayman; meni shayton yo‘ldan uribdi-yu, devor tagida o‘tirib eshitgan hamma gapni qal‘aga qaytganimizdan keyin Grigoriy Aleksandrovichga aytib beribman-da! U mug‘ombir ham bir kulib qo‘ydi, ammo ko‘ngliga bir narsani tugib qo‘ygan ekan.

– Nimani? Aytib bering endi bu yog‘ini ham.

– Nachora, gapni boshlagandan keyin davomini ham aytish kerak. Uch-to‘rt kundan keyin qal‘aga Azamat kelib qoldi. U odati bo‘yicha,

Grigoriy Aleksandrovichning oldiga kirdi, Grigoriy Aleksandrovich uni doim xilma-xil shirinliklar bilan siylab turar edi. Men ham o'sha yerda edim. Gap ot ustida borardi, Pechorin Kazbichning otini maqtay ketdi: Kazbichning oti chopqir-u, kiyikdan chiroylig-u deya boshladi, xullas, uning gapiga qaraganda, dunyoda unday ot yo'q edi. Tatarvachchaning ko'zlari chaq nab ketdi. Pechorin esa o'zini bilmaslikka soldi; men gapii boshqa yoqqa bursam, u yana Kazbichning otidan boshlayverdi. Azamat qachon biznikiga kelsa, shu to'g'rida gapiraverdi. Uch haftalardan keyin qaragam, xuddi romanlardagi singari, Azamatning yuzlari sarg'ayib, o'zini oldirib qo'yipti. «Nima bo'ldiykin?» deb ajablanaman... Bu voqeani keyin payqab qoldim: Grigoriy Aleksandrovich uni shunday darajaga olib borib qo'yidiki, bola bechora o'zini suvga tashlashdan ham toymaydigan bo'lib qoldi. Bir kuni Grigoriy Aleksandrovich uni yoniga chorladi:


«O'sha ot senga juda yoqib qopti-a, Azamat? Ammo unga yetishga senga yo'l bo'lsin! Aytchi, o'sha otni olib bergan odamga nima berarding?» – deb qoldi-ku.

«Xohlagan narsasini», – deb javob berdi Azamat.

«Unday bo'lsa, otni senga men olib beraman, ammo buning bir sharti bor... Bajaraman deb ont ichasan...»

«Ont ichaman... Sen ham ont ich!»

«Bo'pti! O'sha ot seniki bo'ladi deb ont ichaman; ammo uning evaziga menga opang Be-



lani berasan, Qorako'z uning qalini bo'ladi. Ishonamanki, bu savdo senga foydali bo'ladi».

Azamat indamay turardi.

«Xohlamaysanmi? Xohlamasang, mayli! Men seni yigit desam, yosh bola ekansan, ot minishga hali yoshlik qilar ekansan...»

Azamat qip-qizarib ketib:

«Otam bor-ku?» – dedi.

«Otang u yoq, bu yoqqa borib-kelib turmaydimi?»

«Rost-a».

«Rozimisan?..»

«Roziman, – deb shivirladi Azamat, yuzi bo'zday oqarib. – Qachon endi?»

«Qachon Kazbich kelsa – shunda; o'nta qo'y haydab kelaman deb va'da bergan; u yog'i mening ishim. Ammo lafzdan qaytish yo'q, Azamat!»

Shunday qilib, ikkovlarining savdolari pishdi... Rostini aytganda, yaxshi ish bo'lmadi! Keyinchalik men Pechoringa buni aytdim ham. Shunda u, «Yovvoyi cherkas qizi menday chiroyli erga tegib, qaytanga baxtli bo'lishi kerak, negaki, har holda, men unga er bo'laman, Kazbich esa bir qaroqchi, uning jazosini berish kerak», dedi. O'zingiz o'ylab ko'ring, men bunga nima deya olar edim? Ammo u vaqtda men ularning til biriktirganligidan bexabar edim. Kunlardan bir kun Kazbich kelib qoldi-da, qo'y, asal kerakmasmi, deb so'radi; ertaga keltir, deb tayinladim. «Azamat! – dedi Grigoriy Aleksandrovich, – ertaga Qorako'z mening qo'limda bo'ladi; bugun kechasi Bela shu yerda bo'lmasa – ot bilan xayrlashaver...»

«Bo'ptil!» – dedi Azamat va ovulga ot chop-tirib ketdi. Kechqurun Grigoriy Aleksandrovich qurol-yarog'ini taqib qal'adan chiqib ketdi: ish-ni qanday bitirishdi – bilmayman. Ammo yarim kechada ikkovi qaytib keldi. Azamat otiga oyoq-qo'llari bog'langan, boshi chodra bilan o'ralgan bir ayolni o'ngarib kelganini qorovul ko'riпти.

– Ot-chi, ot nima bo'ldi? – deb so'radim kapi-tandan.

– Hozir, hozir. Ertasiga ertalab Kazbich o'nta qo'y haydab keldi. Otini devor yoniga bog'ladi-da, mening oldimga kirdi; oldiga choy qo'ydim, gar-chi qaroqchi bo'lsa ham, mehmonim edi-da. Ikkimiz u yoq bu yoqdan gapirishib o'tirdik... Birdan qaragam Kazbich bir seskanib tushdi, yuzi bo'zday oqarib ketdi-da, derazaga otildi; baxtga qarshi, deraza uyning orqa tomoniga qaragandi. «Senga nima bo'ldi?» – deb so'radim. «Otim!.. Otim!» – dedi Kazbich, titrab-qaqshab. Chindan ham, qulog'imga ot dupuri eshitil-di. «Bitta-yarimta kazak kelgandir...» – dedim. «Yo'q! O'rus yomon, o'rus yomon!» – deb baqirib yubordi Kazbich va tashqariga qoplonday otildi. Ikki hatlab hovliga chiqdi; qal'a darvozasi-da turgan qorovul miltiq bilan yo'lini to'sgan edi, Kazbich miltiq ustidan sakrab o'tdi-da, yo'ldan yugura ketdi... Yiroqda chang ko'rinar edi – Azamat Qorako'zni choptirib ketmoqda edi; Kazbich yo'l-yo'lakay miltig'ini g'ilofidan olib, o'q uzdi. Bir daqiqacha qimir etmay tur-di, keyin o'qning xato ketganini bilib chinqirib yubordi, miltiqni toshga urib chil-chil qilib sindirdi-da, yerga yotib yosh boladay ho'ng-



rab yig'lab yubordi... Qal'adan odamlar chiqib atrofni o'rab olishdi, ammo uning ko'ziga hech narsa ko'rinmasdi; odamlar birpas gaplashib turib, tarqalib ketishdi; men qo'ylarning pulini Kazbichning oldiga oborib qo'yinglar deb buyurdim, pulga ham qaramadi, xuddi o'likday mukkasidan tushib qimirlamay yotaverdi. Xoh ishonib, xoh ishonmang, ertalabgacha qimirlamay yotdi... Ertasi ertalab qal'aga keldi-da, otimni kim o'g'irlaganini aytinglar, deb yalindi. Azamatning otni yechib, minib ketganini ko'rib turgan qorovul ko'rgan-bilganini yashirmadi. Azamat nomini eshitishi bilanoq Kazbichning ko'zlari chaqnab ketdi va Azamatning otasi turgan ovulga qarab jo'nadi.

– Azamatning otasi nima bo'ldi?

– Butun gap shunda-da, Kazbich uning otasini topolmabdi: u besh-olti kunga allaqayerga ketgan ekan, bo'lmasa, Azamat opasini o'g'irlab qocha olarmidi? Otasi qaytib kelsa, uyda na qizi bor va na o'g'li. Azamat juda mug'ombir bola edi. Qo'lga tushsa kallasidan ajralishini bilardi. O'sha-o'sha dom-daraksiz yo'qolib ketdi, biron abreklar to'dasiga qo'shilib, Terekningmi yo Kubanningmi narigi tomonida kallasidan ajralgandir-da, battar bo'lsin!..

Rostini aytsam, mening ham boshimga ko'p savdolar tushdi. Cherkas qizining Grigoriy Aleksandrovich uyidaligini eshitgan zahotim, epoletlarim va qilichimni taqib uning uyiga chiqdim.

Grigoriy Aleksandrovich o'rinda bir qo'lini boshi ostiga qo'yib, bir qo'lida o'chib qolgan tamakisini ushlab yotardi; ichkari uyining eshigi

qulf, burnida kaliti ko'rinmas edi. Buni men bir qarashdayoq payqadam... Men jo'rttaga yo'tala boshladim, ostonani tepib ham ko'rdim, u o'zini eshitmaganga solib yotaverdi.

«Janob! – dedim men, tovushimni mumkin qadar shiddatliroq qilib. – Mening kelganimni ko'rmayapsizmi?»

«E, salom, Maksim Maksimich! Tamaki chekasizmi?» – dedi u, boshini ko'tarmasdan.

«Kechirasiz! Men Maksim Maksimich emas, harbiy kapitanman».

«Farqi yo'q. Choyga qalaysiz? Boshimga qanday tashvish tushganini bilsangiz edi!»

«Men barini bilaman», – dedim karavotga yaqinlashib.

«Yana yaxshi, aytib o'tirishga hushim yo'q-roq edi».

«Janob, sizning qilgan ishingizga men ham javobgar bo'lishim mumkin...»

«Qo'ysangiz-chi! Shunga ham ota go'ri qozixonami? Axir, anchadan beri hamma ishimiz sheriklik-ku!»

«Bu hazilingiz nimasi? Marhamat qilib, qilichingizni topshiring!»

«Mitka, qilichni keltir!..»

Mitka qilichni keltirib berdi. Men o'z burchimni ado etgach, karavotga o'tirdim-da: «Menga qara, Grigoriy Aleksandrovich, yomon ish qilib qo'yganingni bo'yingga ol», – dedim.

«Qanaqa yomon ish qilibman?»

«Belani olib qochganing... Azamat ham mutaham!.. Bo'yingga ol».

«Ha, axir, yaxshi ko'rsam nima qilay?..»

Shundan keyin nima ham deya olardingiz?.. Nima deyishimni bilmay qoldim. Ammo birpas jim o'tirganimdan keyin, otasi talab qilsa qaytarib berish kerakligini aytdim.

«Qaytarib berishning hojati yo'q!»

«Qizining bu yerdaligini bilib qolsa-chi?»

«Qayoqdan biladi?»

Men yana indayolmay qoldim.

«Menga qarang, Maksim Maksimich! – dedi Pechorin, boshini yostiqdan ko'tarib: – O'zingizdan o'tar gap yo'q, – basharti qizni vahshiy otasiga qaytarib bersak – yo bo'g'izlab o'ldiradi, yo birovga sotib yuboradi. Bo'lar ish bo'ldi, endi ishni buzib o'tirishning nima keragi bor; qiz menda-yu, qilich sizda qolsin...»

«Hech bo'lmasa, menga bir ko'rsating o'zini», – dedim men.

«Anavi eshikning orqasida o'tiribdi; bugun o'zim ham bir ko'ray deb shuncha urindim, iloji bo'lmadi, bir burchakda chodraga o'ralib o'tiribdi, qaramaydi ham, gapirmaydi ham, ki-yikday hurkovich. Duxanchining xotinini yollab berdim: u tatar tilini ham biladi, xizmatini ham qiladi, uning meniki ekanligini ham qulog'iga quyadi, chunki mendan boshqa hech kimsaga tegolmaydi, – deb ilova qildi Pechorin, mushti bilan stolni bir urib. – Bunga ham ko'ndim... Nima ham qila olardim? Shunday odamlar bo'larkanki, ularning gapiga rozi bo'lmay sira ilojing yo'q».

– U yog'i nima bo'ldi endi? – deb so'radim Maksim Maksimichdan, – haqiqatan ham Pechorin uni o'ziga o'rgatib oldimi yo qiz tutqunlikda yurtini sog'ina-sog'ina, so'lib ketdimi?

– Yo'g'e, nega yurtini sog'inarkan? Uning ovulidan ko'rinadigan tog'lar qal'adan ham ko'rinib turardi, bu yovvoyilarga shundan boshqa hech narsaning keragi yo'q. Innaykeyin, Grigoriy Aleksandrovich har kuni unga sovg'a berib turardi: dastlabki kunlari qiz sovg'alarni nazar-pisand etmay rad qilardi, hammasi duxanchining xotiniga qolardi, bu esa uning tilini yanada burro qilardi. Eh, hadyalar-hadyalar! Bir parcha chiroyli guldor latta deb xotin kishi nimalar qilmaydi!.. Xayr, buni bir yoqqa qo'ya turaylik... Grigoriy Aleksandrovich u bilan uzoq vaqt olishdi, shu orada tatar tilini ham o'rganib oldi, qiz ham bizning tilimizga tushuna boshladi. Bora-bora Grigoriy Aleksandrovichga ko'z qirini tashlab, zimdan qarab qo'yadigan bo'ldi, nuqul hasrat chekib, o'zi bilgan ashulalarni xirgoyi qilib o'tirardi, narigi uyda o'tirib eshitib qolsam, mening ham yuragim ezilib ketardi. Bir hodisa sira esimdan chiqmaydi; uyning yonidan o'tib ketaturib, derazadan qaradim: Bela so'rida boshini egib o'tirardi. Grigoriy Aleksandrovich esa uning qarshisida turardi. «Menga qara, parim, – derdi Grigoriy Aleksandrovich unga, – ertami-kechmi, axir, meniki bo'lishingni o'zing ham bilasan-ku, nega endi meni bunchalik qiynaysan? Yo biron chechenga ko'ngil qo'rganmisan? Unday bo'lsa, hoziroq uyingga qaytarib yuboraman». Bela bir seskanib tushdi-da, boshini chayqadi. «Yo mendan hazar qilasanmi?» – deb davom etdi Grigoriy Aleksandrovich. Bela bir xo'rsindi. «Yoki dining meni sevishingga yo'l qo'ymaydimi?» Belaning rangi o'chdi, u churq etmay o'tirardi. «Ishon gapimga,

hammaning xudosi bitta, menga seni sevishga yo'l qo'ysa, nega senga yo'l qo'ymas ekan?» Bela xuddi bu yangi fikrdan ajablanganday, uning yuziga yalt etib qaradi; qizning ko'zlarida shubha, shu bilan birga bu gapga ishonish istagi porlar edi. Oh, u ko'zlarni aytmay sizmi! Xuddi bir juft cho'g'day yonib turar edi.

«Menga qara, go'zalim, azizim Bela! – deb davom etardi Pechorin, – seni qanchalar sevganimni ko'rib turibsan: bir kulib qarashing uchun hech narsamni ayamayman; sening vaqtingni xush qilish uchun har narsaga tayyorman, sening baxtli bo'lishingni istayman; agar sen shu qayg'uga botsang – men o'lamen. Ayt-chi, ochilib o'tirasanmi?» Bela qop-qora ko'zlarini undan uzmay o'ylanib qoldi, keyin erkalanib jilmaydi-da, boshini egib rozilik bildirdi. Pechorin uning qo'lidan ushlab, meni bir o'pgin deb yalina boshladi; qiz o'zini ojizlik bilan himoya qilar va nuqul: «Yo'q, yo'q, qo'ying», – derdi. Pechorin aytganimni qilasan deb turib oldi; Belani titroq bosib, yig'lab yubordi. «Men sening cho'ringman, asirangman, – derdi u, – meni zo'rlashga kuching yetadi, albatta», – deb yana ko'z yoshi qila boshladi.

Grigoriy Aleksandrovich peshonasiga bir musht urdi-da, narigi uyga chiqib ketdi. Men uning oldiga kirdim; u ikki qo'lini qovushtirib, qovoqlarini solgan holda uy ichida kezib yurardi. «Xo'sh, ishlar qalay, otaxonim?» – dedim men unga. «Xotin emas, iblis ekan! – deb javob berdi Pechorin. – Ammo, sizga ont ichib aytamanki, menga tegmasa – otimni boshqa qo'ymayman». Men bosh chayqadim. «Garov o'ynay-

sizmi? – dedi menga qarab: – Bir haftadan keyin». «Bo'pti!» Qo'l siqishib ajralishdik.

Ertasi kuni ertalab Pechorin har xil sovg'alar olib kelish uchun shaharga odam yubordi; turli xil eron matolari keltirildi, u mollarning son-sa-nog'i yo'q edi.

«Qalay, Maksim Maksimich, osiyolik go'zal mana bu narsalarga turish berolarmikan?» – deb so'radi Pechorin, matolarni ko'rsatib.

«Siz cherkas qizlarini bilmas ekansiz, – dedim men, – bular gruzin qizlariga ham, tatar qizlariga ham o'xshamaydi, bular butunlay boshqacha. Bularning odatlari ham boshqacha, boshqacha tarbiya ko'rishgan».

Grigoriy Aleksandrovich kulimsirab qo'ydi-da, hushtak bilan marsh chala boshladi.

Xuddi mening aytganim keldi, sovg'alar qizga uncha ta'sir qilmadi; qiz unga mehribonroq va ishonqirabroq qaray boshladi, xolos, undan nari o'tmadi: shundan keyin Pechorin eng oxirgi chorani qilib ko'rmoqchi bo'ldi. Bir kuni ertalab otini egarlatdi-da, cherkascha kiyinib, qurollanib Belaning oldiga kirdi. «Bela! – dedi qizga, – seni naqadar sevishimni o'zing yaxshi bilasan. Meni yaqindan tanib, keyin-keyin yaxshi ko'rib ketarsan deb, seni olib qochib keltirgan edim; men yanglishgan ekanman, xayr endi! Hamma bisot va mulkimni senga tashlab ketdim; xohlasang – otangning uyiga qayt, ixtiyor o'zingda. Sening oldingda gunohkorman, shuning uchun o'zimni jazolashim kerak; xayr, men ketdim,

ammo qayergaligini o'zim ham bilmayman! Balki, baxtim yurishib, biron daydi o'q yoki qilich tig'iga duchor bo'larman; o'shanda meni eslar-san va gunohimdan o'tarsan», – dedi-da, yuzi-ni teskari o'girib xayrlashgani qo'l uzatdi. Bela uning qo'lini olmasdan, jim o'tirardi. Men eshik orqasida turib, tirqishdan qizning yuzini ko'rib turardim: juda rahmim keldi, chunki bechora-ning go'zal chehrasi bo'zday oqarib ketgandi! Javob bo'lmagach, Pechorin eshikka qarab bir necha qadam yurdi; u dir-dir titrardi – rosti-ni aytganda, hazil qilib aytgan gapini amalga oshirishdan toymasdi ham. Shunaqa odam edi o'zi! Endi eshik bandini ushlagan ediki, Bela irg'ib o'rnidan turdi-da, ho'ngrab yig'lab, uning bo'yniga osildi. Xoh ishoning, xoh ishonmang, eshik orqasida turib men ham yig'lab yubor-dim, yig'laganim yo'g'-u, shunday...

Harbiy kapitan jim qoldi.

– Rostini aytsam, hech qachon birorta ayol meni shunchalik sevmagani alam qildi, – dedi keyin, mo'ylovini burab.

– Ularning baxtiyor hayoti uzoqqa cho'zildimi? – deb so'radim men.

– Ha, Bela keyin bizga, «Pechorinni birin-chi ko'rgan kunimdan boshlaboq har kecha tushimga kirib chiqardi, hech kim menga bun-chalik yoqmagan edi», deb iqror bo'ldi. Rost, ular juda baxtli edilar!

– E, bu yog'i qiziq emas ekan-da! – deb yubor-dim beixtiyor. – Darhaqiqat, bu voqea fojia bilan

tugasa kerak, deb o'ylagandim, birdan umidim puchga chiqdi!.. – Nahotki, ota qizining qal'ada ekanligini payqamadi? – deb davom etdim.

– Payqashga-yu payqagan-a, ammo bir necha kundan keyin cholni o'ldirib ketishibdi, deb eshitdik. Voqea bunday bo'ladi...

Yana quloqlarim dikkaydi.

– Shuni aytish kerakki, Kazbich otimni Azamat otasining maslahati bilan o'g'irlagan, deb o'ylagan ekan, har holda, men shunday deb taxmin qilaman. Bir kuni Kazbich ovuldan uch chaqirimcha narida, yo'l yoqasida poylab yotipti; chol qizini qidira-qidira topolmay qaytib kelayotgan ekan; knyazning mahramlari orqada qolib ketgan ekanlar, kech kirib, qosh qoraygan paytda knyaz otini sekin haydab xayolga botib kelayotgan ekan, birdan Kazbich chakalakzor ichidan qoplonday irg'ib chiqib, otiga mingashib olgan-u, xanjar solib yerga yiqitgan, keyin otning jilovini qo'liga olib ura qochgan; knyaz mahramlaridan ba'zilari buni tepalikdan ko'rib qolib ketidan quvishgan bo'lsa ham, yeta olmaganlar.

– Otining o'rniga ot olib, ketidan o'ch ham olibdi-da, – dedim men, harbiy kapitanning fikrini bilmoq uchun.

– Albatta, ularning odatiga qaraganda, Kazbich tamoman haqli edi, – dedi harbiy kapitan.

O'zga xalqlar orasida turishga majbur bo'lgan rus kishisining shu xalqning rasm-odatlariga tezda o'rganib ketish qobiliyati meni beixtiyor hayratda qoldirdi; bu xislatning yaxshi yoki yomon ekanligini bilmayman, ammo bu xislat, ruslarda g'oyat epchillik va sog'lom fikr borli-



gini, zarur bo'lgan paytlarda va daf qilishning iloji bo'lmagan taqdirda, har qanday yovuzlikni kechira olishlarini ko'rsatadi.

Bu orada choy ham ichib bo'lindi; aravaga qo'shilgan otlar anchadan beri sovuqda diy-dirab turar edi; g'arb tomonga og'gan oy ancha xiralashib qolgan va yiroqdagi tog' cho'qqilari tepasida xuddi yirtib tashlangan chodirga o'xshagan qora bulutlar orasiga kiraymi-kiraymaymi deb turar edi. Biz uydan chiqdik. Hamrohining karomatiga qarshi, havo ochilib ketdi, tong ham sokin bo'ladigan ko'rinardi; osmonning yiroq ufqidagi lak-lak yulduzlar chamanday charaqlardi, beg'ubor qor qatlamlari qamrab yotgan tog' bag'irlarini qizartirib, sharq tomondan shafaq yoyilgan sari, yulduzlar ham birin-ketin so'nib borar edi. O'ng va chap tomonimizda sirli va mudhish jarlar qorayib ko'rinardi, tuman xuddi kun yorishishini sezgan va undan qo'rqqanday, g'adir-budur qoyalarga ilashib, ilonday buralib-buralib, jarliklarga kirib borardi.

Ertalabki ibodat vaqtida inson qalbi qanday sokin bo'lsa, osmon ham, yer ham shunday sokin edi: ahyon-ahyonda sharq tomondan esgan yengil shabada otlarning qirov bosgan yollarini yelpib-yelpib qo'yar edi. Biz yo'lga tushdik; besh nafar qirchang'i ot aravamizni qing'ir-qiyshiq yo'ldan Gud-Toqqa zo'rg'a sudrab chiqardi; o'zimiz arava ketidan piyoda borar va otlar holdan toygan paytlarda g'ildirak tagiga tosh qistirib qo'yar edik; nazarimda, yo'l

xuddi osmonga chiqib ketayotganlari tuyilardi, chunki qancha tikilib qaramay, hamon balandga ko'tarilib borar va oxiri kecha kuni Gud-Tog' tepasida xuddi o'lja kutib o'tirgan kalxatga o'xshab ko'ringan qop-qora bulut ichiga kirib, ko'zdan g'oyib bo'lib ketar edi; oyog'imiz ostida qor g'ichirlardi; havo shu qadar siyraklashib borar ediki, zo'rg'a nafas olardik; qon hadeb boshga quyulib kelaverardi, ammo shu bilan birga, butun tomirlarimga allaqanday shodlik tuyg'ulari yoyilib, butun olamning tepasiga chiqib olganim uchun vaqtim xush bo'lib ketgan edi: to'g'ri, bu his bolalarga xos bo'lgan hisdir, yo'q demayman, ammo jamiyatdan yiroqlashgan va tabiatga yaqinlashganimiz sari, o'zimiz ham beixtiyor bolalarga o'xshab qolamiz; dilimizdagi hamma tashvishlar yo'qoladi va bir vaqtlardagidek, yana poklashadi va kelajakda ham shunday bo'lsa kerak, albatta. Menga o'xshab tog'-toshlarni kezib ajoyib va g'aroyib manzaralarni ko'rib yurgan, tog'lar va daralardan anqigan hayotbaxsh havoni suqlanib-suqlanib yutishga o'rgangan odam, mening bu sehrli manzaralarni aytib berishga va tasvirlashga bo'lgan havasimning qanchalik zo'r ekanligini biladi, albatta. Nihoyat, Gud-Tog'ning cho'qqisiga ham yetdik, to'xtab atrofga nazar tashladik: cho'qqi ustida kulrang bulutlar osilib turar va uning muzdek nafasi yaqinda bo'ron turishidan darak berardi, ammo kunchiqar tomon shu qadar beg'ubor va yarqirab turar ediki, biz, ya'ni men bilan harbiy kapitan uni butunlay unutdik... Ha, harbiy kapitan ham unutdi, chunki

tabiat go'zalligi va ulug'vorligi sezgisi bizdek hayajonlangan hikoyachilarning dilidagidan ko'ra sodda odamlarning dilida kuchliroq bo'ladi.

– Siz bunday ajoyib manzaralarni ko'raverib o'rganib qolgandirsiz? – dedim men.

– Ha, o'qning vizillab uchishiga ham, ya'ni yurakning gupillab urishini yashirishga ham o'rganish mumkin.

– Aksincha, ba'zi keksa jangchilarga bu narsa musiqaday yoqadi, deb eshituvdim.

– Istayangiz, bu ham to'g'ri, yoqadi; ammo yuragingiz yanada qattiqroq urgani uchun yoqadi. Bir qarang, qanday go'zal o'lka! – deb ilova qildi harbiy kapitan, kunchiqar tomonni ko'rsatib.

Chindan ham bunday manzarani boshqa hech qayerda uchratish mumkin emasdi: tagimizda yaslanib yotgan Koysaur vodiysining o'rtasini Aragva bilan yana bir soy xuddi kumush uqaday kesib o'tardi; vodiylar tepasida suzib yurgan moviy tuman erta tongning iliq shu'lalaridan o'zini atrofdagi daralarga olib qochardi; o'ng va chap tomondagi qor, changal bosgan, bir-biridan baland tog' tizmalari bir-birovini kesib, har yoqqa cho'zilishib ketardi; yiroqda ham tog'lar, ammo qoyalarning hech qaysisi bir-biriga o'xshamasdi – tog' tepalaridagi qorlar qip-qizil cho'g'day tovlanib shu qadar yarqirab yonardiki, uni ko'rib shu yerda umrbod qolib ketging kelardi; to'q ko'kimtir tog' ortidan – bu yerlarga yaxshi o'rganib qolgan ko'zgina uning qora bulut emasligini ajrata bilardi – quyosh ko'rina boshladi; lekin quyosh

tepasidan o'tgan qon yanglig' qip-qizil shafaq hamrohining diqqatini jalb qildi.

– Bugun havo buziladi, deb aytmabmidim, – deb xitob qildi u. – Ildamroq yuraylik, toqqa yetganimizda bo'ronda qolmaylik tag'in.

Keyin, «Hayda!» deb qichqirdi aravakashlarga.

Aravalar pastlikka sirg'anib ketmasin deb, g'ildiraklarga zanjir bog'ladik, otlarning jilovidan ushlab, pastga tusha boshladik; o'ng tomonimiz baland qoya edi, chap tomonimiz esa shu qadar chuqur jarlik ediki, uning tagiga joylashgan butun boshli Osetin qishlog'i xuddi qaldirg'och uyasidek bo'lib ko'rinardi; ikkita arava duch kelib qolsa o'tib ketolmaydigan bu yo'ldan qorong'i kechalarda kurerlarning yiliga o'n martalab shalaq aravadan tushmay o'tishini ko'z oldimga keltirgai edim, etim jimirlashib ketdi. Aravakashlarimizning biri yaroslavlilik rus xizmatchisi bo'lib, ikkinchisi – osetin edi; osetin o'rtaga «qo'shilgan otni zo'r ehtiyot bilan yetaklab borardi, – bizning beg'am rusimiz esa hatto aravadan tushmadi ham! Men unga, hech bo'lmasa mening jomandonimning g'amini yesang-chi, jarga tushib ketsa, uning ketidan tushib yurishga tobim bormi, desam, u: «Qo'yavering, xo'jayin! Xudo xohlasa omon-eson yetib olamiz; bu yerlarda ko'p yurganmiz», – dedi. U haqli edi: haqiqatan, manzilga omon-eson yetib olmasligimiz mumkin edi-yu, ammo yetib oldik; odamlar ko'proq mulohaza qilib ko'rsalar hayotning tashvishga arzimasligini bilgan bo'lar edilar...

Balki, siz Bela voqeasini pirovardini bilmog'ni istarsiz?

Birinchidan, men yozganim qissa emas, balki yo'l xotiralaridir; binobarin, harbiy-kapitanining o'zi boshlamaguncha uni gapirishga majbur eta olmayman. Xullas, sabr qilingiz yoki, istasangiz, kitobning bir nechta varag'ini ochib qarasangiz, ammo bunday qilishni maslahat ko'rmayman, chunki Krestovaya tog'i (yoki gamba<sup>1</sup> degan bir olimning aytishicha, le Mont St-Christophe)dan<sup>2</sup> oshish sizning diqqatingizga arziydi. Shunday qilib, biz Gud-Tog'dan Chertovaya vodiysiga oshib tushdik... Ana bu romantik nomni qarang! Ko'z oldingizda darhol odam oyog'i tegmagan tog'lar orasidan makon tutgan yovuz jinlar uyasi kelgandir – yo'q, unday emas: Chertovaya vodiysining nomi «chort», ya'ni shayton, ajina degan so'zdan emas, balki «cherta», ya'ni chiziq, chegara degan so'zdan kelib chiqqan. Chunki bir vaqtlar Gruziya chegarasi shu yerdan o'tardi. Vodiyni xuddi Saratov, Tambov va vatanimizning shunga o'xshash aziz yerlari kabi qor uyumlari ko'mib yuborgan edi.

– Ana, Krestovaya tog'iga ham yetdik! – deya harbiy-kapitan, Chertovaya vodiysiga tushganimizdan keyin qor tagida qolib ketgan bir tepalikni ko'rsatib; tepalik cho'qqisida toshdan yasalgan xoch ko'rinardi, shu xoch yonidan ko'zga g'ira-shira ko'rinadigan yo'l o'tar-

<sup>1</sup> Gamba, Jan-Fransua (1763–1833) – fransuz sayyohi; 1824-yilda «Janubiy Rossiya sayohatnomasi» degan kitob chiqargan.

<sup>2</sup> Le Mont St-Christophe – Xristofor avliyo tog'i (frans.).

di: boshqa yo'lni qor ko'mib yuborgan kezlar-dagina shu yo'ldan yurilardi: aravakashlari-miz tog'dan hali ko'chki tushmaganini aytish-di va otlarni ayab, bizni aylanma yo'ldan olib ketishdi. Muyulishda yetganda beshta osetinni uchratdik: ular bizga o'z xizmatlarini taklif etib, hoy-huvlashib aravamizning g'ildiragidan itara boshladilar. Yo'l haqiqatan ham xavfli edi: o'ng tomondan, tepamizdan bir shamol ko'tarilsa daraning ichiga qulab tushishga tayyor qor uyumlari osilib turardi; torgina yo'lning bir qis-mini qor ko'mib yuborgan, ba'zi yerlarda qor tizzamizgacha chiqardi, ba'zi yerlarda esa oftob shu'lalari va tungi sovuqning kuchi bilan yax-lab qolgandi, shuning uchun biz arang yurib borar edik; otlar toyib yiqilardi; chap tomoni-miz juda chuqur jarlik bo'lib, uning tagidan hayqirib oqqan daryo goh muz tagiga kirib ketar, goh qop-qora toshlar ustidan ko'pirib oqardi. Krestovaya tog'ini ikki soatda aylanib o'tibmiz, ikki soat ichida atigi ikki chaqirim yo'l bosibmiz, xolos! Shu orada bulutlar pastlashib, oldin do'l, ketidan qor yog'a boshladi; daralar ichiga bostirib kiruvchi shamol xuddi Solovey-Razboynik<sup>1</sup> singari bo'kirar, hayqirar, hushtak chalganday chiyillardi, ko'p o'tmay tosh xochni sharq tomondan to'lqinlanib keluvchi tuman bosib, xoch ko'zdan g'oyib bo'ldi... Darvoqe, shu xoch to'g'risida g'alati, ammo keng tarqal-gan rivoyat bor, shu rivoyatga qaraganda, bu xochni Pyotr I Kavkazdan o'tib ketayotganida

---

<sup>1</sup> Solovey-Razboynik – rus ertaklaridan birining qahra-  
moni.

qo'ydirgan emish; ammo birinchidan, Pyotr faqat Dog'istongacha kelgan, ikkinchidan esa xochning ustiga, general Yermolovning amri bilan qo'yilgan deb katta-katta harflar bilan yozilgan, demak, xoch 1824-yilda qo'yilgan bo'ladi. Ammo, mazkur lavhaning bo'lishiga qaramay, rivoyat shu qadar singib ketgan ediki, lavhalariga ishonmasligimizni nazarga olganda, qaysi biriga ishonishingni ham bilmaysan kishi.

Kobi bekatiga yetib olishimiz uchun yaxmalak toshlar va yumshoq qorlar ustidan yana besh chaqirimcha yurishimiz kerak edi. Otlarimiz juda holdan toygan, o'zimiz o'larday sovqotgan edik; bo'ron xuddi o'zimizning shimol bo'ronlari singari tobora zo'rayib borardi; faqat uning mudhish nolasi nihoyatda g'amgin va mungli edi. «Sen ham o'zingning bepoyon keng dashtlaringni sog'inib yig'larkansan, darbadar! – deb o'ylardim men. – U yerlarda sovuq qanotlaringni qancha kersang keraverasan, bu yerda esa xuddi temir qafas panjaralariga chinqirib qanotlarini urgan burgut yanglig' siqilasani, dimiqasani».

– Ish chatoq! – dedi harbiy kapitan, – atrofga bir qarang, tuman bilan qordan boshqa hech narsa ko'rinmaydi; falokat bosib, jargami yo biron chuqurgami tushib ketmaylik; pastda Baydara quturib yotgan bo'lsa undan o'tolmaymiz. Osiyoning shunisi yomon-da! Odamlariga ham, daryolariga ham ishonib bo'lmaydi!

Aravakashlarimiz pishqirgan, oyoqlarini tirab olib, qamchilarning achchiq zarbiga ham qaramasdan, joylaridan siljimay turgan otlarga baqirib, so'kina-so'kina savalardilar.

– Taqsir, bugun baribir Kobiga yetolmaymiz, – deb qoldi aravakashlardan biri, – ruxsat etsangiz, vaqt borida chapga burilsak. Hov anavi tog‘ bag‘rida bir narsa qorayib ko‘rinadi, ehtimol, uydur: havo buzuq kezlarda yo‘lovchilar hamisha o‘sha yerga qo‘nadi. Anavilar, araq puli bersa, boshlab boramiz, deyishyapti, – deb ilova qildi aravakash, osetinni ko‘rsatib.

– Bilaman, uka, sensiz ham bilaman! – dedi harbiy kapitan, shu yo‘l boshlab boruvchilar ham yomon jonimga tegdi-da! Araq puli olish uchun topgan bahonalarini qarang-a!

– Har holda, iqror bo‘lishingiz kerakki, bular bo‘lmaganda ahvolimiz chatoq bo‘lardi, – dedim.

– Ha, to‘g‘ri, to‘g‘ri, – deb ming‘illadi harbiy kapitan. – Uf, bu yo‘lboshlovchilar rosa jonimga tegdi-da. Qayerdan foyda chiqsa, darrov isini bilishadi, go‘yo bularsiz pul topilmaydiganday.

Chapga burildik, ko‘p mashaqqatlardan keyin zo‘rg‘a bir manzilga yetib oldik, bu manzil xarsang toshlardan yasali tosh devorlar bilan o‘rab olingan ikki xonali bir kulba edi. Juldur-juldur kiyingan uy egalari bizni zo‘r xursandchilik bilan kutib olishdi. Keyin bilsam, hukumat bo‘ronda qolgan yo‘lovchilarga manzil berish sharti bilan ularga haq to‘lar va oziq-ovqat bilan ta‘minlab turarkan.

– Har holda, juda yaxshi bo‘ldi, – dedim men, gulxan yoniga o‘tirib, – endi Bela voqeasining oxirini aytib berasiz, imonim komilki, voqea o‘sha bilan tugamagandir.

– Nima uchun imoningiz komil? – dedi harbiy kapitan, mug‘ombirlik bilan ko‘z qisib.



– Shuning uchunki, odatda bunday bo'lmaydi: g'ayritabiiy boshlangan narsa g'ayritabiiy ravishda tugalishi kerak.

– Ha, topdingiz-a...

– G'oyat xursandman.

– Siz-ku xursand bo'lasiz-a, ammo mening esimga tushsa hozir ham yuragim achishib ketadi. Bela juda ajoyib qiz edi! Keyin-keyin uni xuddi o'z qizimday yaxshi ko'rib qoldim, u ham meni yaxshi ko'rardi. Shuni ham aytishim kerakki, mening bola-chaqam yo'q, so'qqa-bosh odamman; ota-onamdan xabar kelmaganiga ham 12 yilcha bo'ldi, vaqtida o'ylanib ham olmagan ekanman, endi menga uylanish yarashmasa kerak; shuning uchun ham, erkalatadigan ovunchoq topib olganimdan xursand edim... Ba'zan u bizga ashulalar aytib, lezginchaga o'ynab berar edi... Uning o'ynaganini ko'rsangiz! O'zimizning guberniya qizlarini ko'p ko'rganman, bir marta, bundan 20 yilcha muqaddam, Moskvada asilzodalar klubida ham bo'lganman, ammo buning oldida ularga yo'l bo'lsin. Ular ip esholmaydi!.. Grigoriy Aleksandrovich uni qo'g'irchoqday yasantirib qo'yar edi, juda yaxshi parvarish qildi, o'zi ham biznikida turib, shunaqangi ochilib ketdiki, asti qo'yavering; quyoshda qoraygan yuzi va qo'llari oqarib, yuzlari olmadek qip-qizil bo'lib ketdi... Juda sho'x bo'lib ketgandi qizi tushmagur. Nuqul menga tegishgani tegishgan edi... Xudo o'zi kechirsin!

– Otasining o'lganini aytganingizdan keyin nima bo'ldi?

– O‘z ahvoliga ko‘nikib ketguncha bu sirni undan yashirib yurdik; aytganimizdan keyin bir-ikki kun yig‘ladi-yu, keyin esidan chiqib ketdi. To‘rt oycha yaxshi turishdi. Grigoriy Aleksandrovich ovga juda ishqivoz edi deb aytuvdim, shekilli: ilgarilari to‘ng‘iz yo kiyik ovlab o‘rmondan chiqmas edi, endi bo‘lsa qal‘a devoridan nariga ham o‘tmaydigan bo‘lib qoldi. Ammo keyin qaragam: yana xayolga cho‘mib qo‘llarini orqasiga qilib, uy ichida aylanib yuradigan bir kun hech kimga aytmasdan ovga ketibdi, kun bo‘yi ovda yurdi; bir ketdi, ikki ketdi, keyin ovga bormaydigan kuni qolmadi... Yaxshi emas, oralariga sovuqchilik tushganga o‘xshaydi deb o‘yladim.

Bir kuni ertalab ularnikiga kirib qoldim, bu voqea hali ham ko‘z oldimdan ketmaydi. Qora shohi peshmat kiygan, yuzlari so‘lg‘in Bela karavotda o‘tiribdi: chehrasi g‘amg‘in; ko‘rib qo‘rqib ketdim.

– Pechorin qani? – deb so‘radim.

– Ovda.

– Bugun ketdimi?

Bela xuddi gapirishga qiynalganday indamay o‘tirardi.

– Yo‘q, kecha ketgan edi, – dedi u nihoyat, og‘ir xo‘rsinib.

– Biror falokatga uchragan bo‘lmasin tag‘in?

– Kecha kuni bilan xayol surib o‘tirdim, – dedi Bela, yig‘i aralash, – miyamga ming xil xayollar keldi: goh uni yovvoyi to‘ng‘iz yarador qildimi, yo chechen toqqa olib qochib ketdimi, deyman... Bugun esa meni sevmasa kerak, deb o‘ylab o‘tiribman.

– Bundan battarroq narsani o‘ylab topmadingmi, qizim?!

Bela yig‘lab yubordi, so‘ng boshini g‘urur bilan baland ko‘tardi-da, ko‘z yoshlarini artib davom etdi:

– Agarda meni sevmasa, uyimga qaytarib yuborishiga nima to‘sqinlik qiladi? Men uni zo‘rlamayman. Bundan buyon ham shunday bo‘lsa, o‘zim ketaman-qo‘yaman: men uning cho‘risi emasman, knyaz qiziman.

Men uni yupata boshladim:

– Menga qara Bela, axir u sening etagingga tikib qo‘yilgan emaski uzzukun uydan chiqmay o‘tirsa; axir u yosh yigit bo‘lsa, ovga ishqivoz bo‘lsa, yuradi-yuradi-da, yana qaytib keladi. Tashvish chekaversang, xafa bo‘laversang qaytanga uni tezroq zeriktirib qo‘yasan.

– Rost, rost! – deb javob berdi Bela, – endi xushchaqchaq bo‘lib o‘tiraman.

Keyin kuldi-da, childirmasini chalib, ashula aytishga va o‘yinga tushib, atrofimda chirillab aylanishga tushdi; ammo bu ham uzoqqa bormadi, yana karavotga o‘zini tashladi-da, qo‘llari bilan yuzini berkitib oldi.

Nima ham qila olardim? Mening xotin kishiga sira ishim tushmagan; uni qanday ovutay deb o‘ylab-o‘ylab, hech ilojini qila olmadim; bir-muncha vaqt ikkimiz jim qoldik... Juda og‘ir ahvol yuz berdi.

Axiri men unga: «Istasang yur, tuproqqo‘rg‘onni aylanib kelamiz. Havo juda yaxshi», – dedim. Sentabr oyi edi. Darhaqiqat, kun juda yaxshi edi; quyosh porlab tursa ham, uncha issiq emas edi,

hamma tog'lar xuddi kaftda turganday ravshan ko'rinardi. Biz indamasdan qal'a ko'tarmasini aylanib yurdik; nihoyat, Bela chimga o'tirdi, men ham uning yoniga o'tirdim. Esimga tushsa – kulгим qistaydi; men xuddi uning murabbiyasiday ketidan ergashib yurardim.

Qal'amiz balandlikda edi, valdan juda ajoyib manzara ochilardi: bir tomon – bir necha jarlik tilkalab tashlagan keng yalanglik bo'lib, oxiri tog' tizmasigacha cho'zilgan o'rmonga borib tutashardi; yalanglikning u yer, bu yerida tutunlar burqiyotgan ovullar ko'rinardi, yilqilar o'tlab yurardi; boshqa tomondan esa kichkina soy oqardi, soyning narigi tomonini Kavkazning katta tog'lariga qo'shib ketgan qirra toshli butazorlar qoplab yotardi. Biz Bastion<sup>1</sup> burchagida o'tirardik, shuning uchun ikki tomon ham yaqqol ko'rinib turardi. Bir mahal qaragam, o'rmon ichidan ko'k ot mingan bir kishi chiqib biz tomonga otini yeldirib kelaverdi, nihoyat, soyning narigi betiga, bizdan yuz sarjinch nariga kelib to'xtadi-da, xuddi quturganday, otini o'ynoqlata boshladi. Bu nima qilgani, dedim ichimda... «Sen qara, Bela, yosh-san, ko'zing o'tkir, u suvori kim ekan, kimga tomosha ko'rsatgani kepti?..» – dedim.

Bela qaradi va birdan: «Kazbich-ku!..» – deb qichqirib yubordi.

«Obbo, qaroqchi-yey! Bizni mazax qilgani keldimi?» Sinchiklab qaragam, xuddi Kazbichning o'zginasi, afti-basharasi qora, ust-boshi juldur, avvalgiday iflos. «Tagidagi ot – otamning

<sup>1</sup> Bastion – besh burchak shaklida qurilgan istehkom.

oti», – dedi Bela, qo'limdan mahkam ushlab, o'zi xuddi terakning bargiday titrardi, ko'zlari o'tday chaq nab ketdi.

«Ha-ha, – dedim ichimda, – sening tomirlaringda ham qaroqchi qoni qaynarkan-ku!»

– Beri kel, – dedim men chasovoyga, – miltig'ingni ol, hov anavi suvorini otdan yiqit-sang kumush so'lkavoy olasan.

– Xo'p bo'ladi, janobi oliylari, ammo bir joy-da tek turmayapti-da... – dedi u.

– Buyur, tursin! – dedim men kulib.

– Hoy og'ayni? – deb baqirdi chasovoy, qo'li-ni silkitib, birpas tek tur, namuncha gir-gir aylanmasang?

Kazbich chindan ham to'xtab quloq sola bosh-ladi; muzokara boshlaydi, deb o'ylagan bo'lsa kerak, ammo chuchvarani xom sanagan edi! Mening grenadyorim<sup>1</sup> miltiqni mo'ljalga oldi-da, «paq» etib otdi... tegmadi; faqat poroxning chaq-nab yongani ko'rindi, xolos. Kazbich otini bir niqtagan edi, ot chetga sakradi. Kazbich oyog'ini uzangiga tirab qaddini rosladi-da, o'z tilida bir nimalar deb, qamchisini o'qtalib, qochib ketdi.

– Uyat senga! – dedim chasovoyga qarab.

– Janobi oliylari, jon bergani ketdi, – deb javob qaytardi chasovoy, – bu la'nati xalq o'q yesa ham darrov o'la qolmaydi.

Chorak soatdan keyin Pechorin ovdan qayt-di. Bela uning bo'yniga o'zini tashladi, uzoq yo'qolib ketgani uchun undan o'pkalamadi ham, gina ham qilmadi.

---

<sup>1</sup> Grenadyor – maxsus qo'shin tarkibida xizmat qiluvchi askar.

Hatto mening ham Pechorindan achchig'im chiqib ketdi.

– Hoy, menga qarang, insof bormi o'zingizda, – dedim unga, – hozirning o'zida Kazbich soyning narigi tomonida edi, biz uni o'qqa tutdik; yo'lda duch kelib qolsa nima qilardingiz? Tog'liklar juda qasoskor xalq bo'ladi: otni Azamat bilan til biriktirib o'g'irlaganingizni payqamadi deb o'ylaysizmi? Boshimni garovga qo'yib aytamanki, endi Belani ham tanidi. Bundan bir yil burun Belani yaxshi ko'rib yurgani bilaman, menga o'zi aytib yurar edi...

Shundan keyin Pechorin o'ylanib qoldi.

– Rost, ehtiyot bo'lish kerak... Bela, bugundan e'tiboran qal'adan tashqariga chiqmasliging kerak, – dedi.

Kechqurun u bilan anchagacha bahslashib o'tirdik, bechora qizga bo'lgan munosabatining o'zgarganidan jahlim chiqqan edi; ertadan kechgacha ovda yurishidan tashqari, Beladan ham ko'ngli sovigan, uni kamdan-kam erkalaydigan bo'lib qolgan edi. Bela boyaqish so'liy boshlagan, yuzlarining qoni qochgan, shahlo ko'zlari ham so'na boshlagan edi.

– Nega xo'rsinding, Bela, xafamisan? – deb so'radim.

– Yo'q! – dedi.

– Ko'ngling biron narsa istaydimi?

– Yo'q!

– Qarindosh-urug'laringni sog'indingmi?

– Mening hech qanaqa qarindosh-urug'im yo'q.

Hatto shunday bo'lardiki, butun kun bo'yi yo «ha», yo «yo'q»dan bo'lak hech narsa demasdi.

Pechoringa men shularni gapirib berdim.

– Menga qarang, Maksim Maksimich, – deb javob berdi u, – mening mijozim juda yomon-da; tarbiya orqasida shunday boʻlganmanmi, yo Xudo shunday yaratganmi, bilmayman; faqat shuni bilamanki, agar boshqalarning baxtsizligiga sababchi boʻlsam, oʻzim ham ular kabi baxtsiz boʻlib ketaman. Shubhasiz, bu narsa u baxtsizlarga tasalli boʻla olmaydi, albatta, ammo, nachora, hamma kulfat shunda. Ilk yoshligimda, ota-onamning qanoti ostidan chiqqan damdan boshlab, pulga sotib olish mumkin boʻlgan hamma aysh-ishratlarni totib koʻra boshladim, shubhasiz, bu aysh-ishratlar axir borib koʻnglimga urdi. Keyin jamiyatning yuqori tabaqasiga otildim, koʻp oʻtmay bu ham jonimga tegdi; asilzoda goʻzallarga muhabbat qoʻydim, ular ham meni yaxshi koʻrishardi, ammo ularning ishqi faqat mening fikri-xayolimni va izzat-nafsimni qoʻzgʻatardi, xolos; qalbim esa boʻshligicha qolaverardi... Kitobga berildim, oʻqidim – ilm-maʼrifat ham koʻnglimga urdi; shuhratning ham, baxtning ham ularga bogʻliq emasligini bildim, chunki hammadan baxtli nodonlar ekan, shuhrat degan narsa tolening oʻzi ekan, unga erishish uchun faqat abjir boʻlsang kifoya ekan. Shundan keyin, yuragim siqilib, diqqinapas boʻla boshladim... Koʻp oʻtmay meni Kavkazga koʻchirishdi; bu davr umrimning eng baxtli davri edi. Men chechenlar oʻqi ostida odam diqqinapas boʻlmasa kerak deb oʻyladim, afsus, yanglishibman; bir oy oʻtmasdan oʻqlarning vizillab uchishiga va